XALQ DEPUTATLARI BUXORO VILOYATI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 16-dekabr VII-3-016-2-0-K/24 Buxoro viloyati

Peshku tumani “Xurram” mahalla fuqarolar yigʻini hududida joylashgan nomsiz aholi punktiga “Asaton” nomini berish toʻgʻrisida

“Geografik obyektlarning nomlari toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi Qonunining 9-moddasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2024-yil 25-oktabrdagi 05-19-01-4784-sonli xulosasi hamda Peshku tumani hokimligining “Xurram” mahalla fuqarolar yigʻini hududida joylashgan nomsiz aholi punktini “Asaton” deb nomlash toʻgʻrisidagi 2024-yil 15-noyabrdagi 01-08/1726-sonli taklifini koʻrib chiqib, xalq deputatlari viloyat Kengashi

Q A R O R Q I L D I:

1. Peshku tumani hokimligining “Xurram” mahalla fuqarolar yigʻini hududida joylashgan nomsiz aholi punkitini “Asaton” deb nomlash toʻgʻrisidagi taklifi maʼqullansin.
2. Peshku tumani hokimligi (H.Davlatov), viloyat statistika boshqarmasi (U.Jumanazarov)ga tegishli davlat roʻyxatidan oʻtkazish idoralari bilan birgalikda mazkur qarordan kelib chiqib hisobotlarga belgilangan tartibda oʻzgartirishlar kiritish topshirilsin.
3. Viloyat hokimligi axborot xizmati (O.Joʻrayev)ga mazkur qarorni “Buxoronoma” va “Buxarskiy vestnik” gazetalarida hamda viloyat hokimligining rasmiy veb-saytida eʼlon qilinishini taʼminlash topshirilsin.
4. Ushbu qaror rasmiy eʼlon qilingan kundan eʼtiboran kuchga kirishi belgilansin.
5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari boʻyicha doimiy komissiyasi raisi Z.Tuyeva zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi ASHUROV JAMOL RAJABBOYEVICH